XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - iyul VI-72-79-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

Mahallani bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori, tuman hokimi va tumandagi Ko‘hsor, Palandara, Jilisuv mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining hududiy chegaralarini o‘zgartirish va yangi mahallalar tashkil etish to‘g‘risidagi takliflarini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kitob tumanidagi Ko‘hsor, Palandara, Jilisuv mahallalari hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risidagi tuman hokimi, shuningdek, Ko‘hsor, Palandara, Jilisuv mahallalari raislari tomonidan berilgan takliflar ma’qullansin hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 8-apreldagi B-01-05/73-sonli bayoni, respublika ekspert komissiyasining 2022-yil 26-maydagi 08-04300-sonli xati va xulosasi inobatga olinsin.

2. Tumandagi yangi tashkil etiladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomlari va qishloqlari ro‘yxati 1-ilovaga, bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan mahallalarning yer maydonlari 2-ilovaga, chegaralari 3-ilovaga, aholisi

soni haqidagi ma’lumotlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kitob tumanida mahalla fuqarolar yig‘inlari soni 63 ta deb yuritilsin.

4. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Omonov), tuman hokimligi mutasaddi rahbarlari bilan hamkorlikda:

yangi tashkil etilgan mahallalarning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratsin;

o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borsin;

tumanda “Jilisuv” QFYni “Jilisuv” MFY tarzida o‘zgartirish bo‘yicha respublika ekspert komissiyasi xulosasi inobatga olinsin.

5.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Z.Ergashev), tuman moliya bo‘limi (I.Rahmonov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman statistika bo‘limi (G‘.Murodov), tuman Kadastr agentligi (A.Ochilov), tuman Qurilish bo‘limi (U.Jo‘rayev) boshqa tegishli davlat organlari bilan birgalikda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

7. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I.Tog‘ayev) mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

8. Tuman Qurilish bo‘limi (U.Jo‘rayev), tumanda yangidan tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida lotin yozuviga asoslangan davlat tilida yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etsin.

9. “Kitob ovozi” gazetasi tahririyati (S.Isomiddinov), tuman hokimligi axborot xizmati (Q.Oqilov) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman

Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (G.Sattorova) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Egamberdiyev B.B**

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-72-79-4-62-K/22-son qaroriga
1-ilova

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining nomi to‘g‘risida

№	Bo‘linadigan MFY nomi	Yangi tashkil etiladigan MFYlar nomi	Yangi tashkil etilgan MFYlar qishloqlari
1.	“Ko‘hsor” MFY	“Javz” MFY	Jovuz
		“Dehnavbolo” MFY	Denovbolo, Aspiduxtar, Shut
2.	“Palandara” MFY	“Vatkana” MFY	Deyshqon, Vatkana, Oftobro‘ya, Yuqori Oftobro‘ya
3.	“Jilisuv” MFY	“Bolqonqaychili” MFY	Bolqonqaychili, Yangi Chimboy, Yangi Jilisuv

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-72-79-4-62-K/22-son qaroriga
2-ilova

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari umumiy maydoni

№	Bo‘linadigan MFYning umumiy maydoni		Mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘lingandan keyin qolgan maydoni		Yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy maydoni	
1.	“Ko‘hsor” MFY	30000	“Ko‘hsor” MFY	4000	Javz MFY	13600
					“Dehnavbolo” MFY	12400
2.	“Palandara” MFY	6380	“Palandara” MFY	3795	“Vatkana” MFY	2585
3.	“Jilisuv” MFY	1986	“Jilisuv” MFY	1083	“Bolqonqaychili” MFY	903

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-72-79-4-62-K/22-son qaroriga
3-ilova

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining aholi soni to‘g‘risida ma’lumot

№	Bo‘linadigan MFYning jami aholi soni		Mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘lingandan kiyin qolgan aholi soni		Yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni	
1.	Kuxsor MFY	5756	Kuxsor MFY	2237	Jovuz MFY	2384
					Denovbolo MFY	1135
					Kuxsor MFY	2237
2.	Palandara MFY	8300	Palandara MFY	3786	Palandara MFY	3786
					Vatkana MFY	4514
3.	Jilisuv MFY	6392	Jilisuv MFY	2748	Bolqonqaychili MFY	3644
					Jilisuv MFY	2748

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 1 iyuldagi
VI-72-79-4-62-K/22-son qaroriga
4-ilova

Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari aholi soni to‘g‘risida ma’lumot

№	Bo‘linadigan MFYning jami aholi soni		Mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lingandan keyin qolgan aholi soni		Янги ташкил этилган маҳалла фуқаролар йиғинининг аҳоли сони	
1.	“Ko‘hsor” MFY	5756	“Ko‘hsor” MFY	2237	Javz MFY	2384
					“Dehnavbolo” MFY	1135
2.	“Palandara” MFY	8300	“Palandara” MFY	3786	“Vatkana” MFY	4514
3.	“Jilisuv” MFY	6392	“Jilisuv” MFY	2748	“Bolqonqaychili” MFY	3644